

SUV OBYEKTLARINING SUVNI MUHOFAZA QILISH

Boboqulov Baxtiyor Kamol o'g'li

“Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi” ixtisosligi bo'yicha Mustaqil izlanuvchi.

“Navvilyerloyiha” bo'linmasi yetakchi muhandisi.

Annotatsiya: *Daryolar, soylar, suv omborlari va boshqa suv havzalari, suv xo'jaligi ob'yektlari hamda boshqa barcha suv manbalarini sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa ob'yektlarning zararli ta'siridan muhofaza qilishni kuchaytirish.*

Suv ob'yektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibini, shuningdek, suv resurslarining ifloslanishi, bulg'anishi va tanqisligining oldini olish, suv ob'yektlaridan samarali foydalanish va suv resurslarini oqilona boshqarish

Kalit (tayanch) so'zlar: *Suv resurslari, sanitariya-himoya mintaqasi, tuproq eroziyasi, rekonstruksiya, gidrogeologik, gidrobiologik, gidrokimyoviy, tabiiy va sun'iy suv havzalari, yer usti va yer osti suv manbalari, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari, mineral suv manbalari,*

KIRISH

„Suv tekin emas“, degan g'oyani aholiga chuqur singdirish, uni mahalla faollari, nuroniylar, ziyolilar va keng jamoatchilik bilan birga kundalik turmush qoidasiga aylantirish asosiy vazifa bo'lishi lozim”, —

Shavkat Mirziyoev.

So'nggi yillarda sayyoramizda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari, tabiat muvozanatidagi kutilmagan og'ishlar dunyo hamjamiyatini o'ylantirayotgan turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shulardan biri suv masalasidir. Bu, ayniqsa, qishloq xo'jaligi uchun transchegaraviy suvlardan foydalanadigan mamlakatlarda yaqqol sezilayapti.

Xalqimizda “Suv — zar, suvchi — zargar” degan gap bor. Ushbu fikr qanchalik ahamiyatli ekanligini bugun mamlakatimizdagi har bir dehqon his qilayapti. Negaki, joriy yilda iqlimning qurg'oqchil kelishi ko'plab qishloq xo'jaligi xodimlarini o'ylantirib qo'ydi.

Albatta, har bir ekinning unib chiqishi, rivojlanishi va mo'l hosil berishi agrotexnik tadbirlar bilan birga avvalo suvga bog'liq ekanligini barchamiz bilamiz.

MAVZU DOLZARBLIGI

2023-yil 30-aprel kuni bo'lib o'tgan umumxalq referendumida xalqimiz o'zining yuksak siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va dunyoqarashini namoyon etib, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash, asosiy qonunimizda belgilangan demokratik, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalari asosida fuqarolarni jipslashtirish, "Konstitutsiya — xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!" degan g'oyani Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zida mujassam etgan.

So'nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning o'rni mustahkamlanib bormoqda.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o'tilganligini ko'rish mumkin. Konstitutsiyamizda har bir jabhalar sohalarga alohida e'tibor qaratilganligi bilan ham muhim hisoblanadi.

Masalan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 68-moddasida Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin. Deb belgilangan.

O'zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va himoyaga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash kabilarni anglatadi.

XULOSA

Keyingi 7 yil ichida jamiyatimiz hayotida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston jahon hamjamiyatiga ochildi, jahon hamjamiyati esa o'zi uchun O'zbekistonni kashf etmoqda. Mamlakat rahbariyati belgilagan sur'atlar hayratlanarli. Jamiyatimizning barcha jabhalarida iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va madaniy hayotida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Konstitutsiya har qanday davlatning asosiy qonunidir. U jamiyat uchun ishlashi, uning talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak. Konstitutsiyaning mazmuni — mamlakatning davlat, ijtimoiy va siyosiy hayotining barcha asoslarini belgilashdan iborat. Boshqacha aytganda, u huquq tizimining asosi va poydevori bo'lib, boshqa barcha qonunlar uning asosida quriladi.

Lekin, shu bilan birga, Konstitutsiya qat'iy, o'zgarmas hujjat emas. Agar Konstitutsiyani o'zgartirish zarurati paydo bo'layotgan bo'lsa, demak, bu jamiyatning evolyutsion rivojlanishiga asoslangan holda, O'zbekistonda yaqin kelajakda bo'lgan maqsadlarimizni belgilab olish, ochiq va ishonchli davlat qurish uchun hayotiy zaruratdan dalolat beradi.

Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda har bir modda barchaga tushunarli, aniq va lo'nda bayon etilgani va sinchiklab ishlab chiqilganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'zgarish va qo'shimchalar O'zbekistonni yanada barqaror rivojlantirish, turli tahdidlarga qarshi tura oladigan salohiyatini mustahkamlashga qaratilgandir.

Rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 1992 yil 8 dekabr sanasi e'tirof etiladi, 8 dekabr – bayram sanasi o'zgarmaydi.

Yangilangan Konstitutsiya “inson-jamiyat-davlat” tamoyiliga asoslanadi, chunki unda barcha toifalar — yoshlar, ayollar, nogironlar, o'qituvchilar va hatto jinoyatchilarning ham huquq va manfaatlari o'z ifodasini topgani bilan amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2023-yil 30-aprel.dagi Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi F-72-sonli farmoyishi.
3. Internet ma'lumotlari.